

“YUSUF VA ZULAYHO” TURKUM DOSTONLARI VA QISSALARI QIYOSIY TAHLILI

Aliyeva Zulayxo

Kattaqo'rg'on davlat pedagogika instituti

Filologiya va ijtimoiy fanlar fakulteti

O'zbek tili va adabiyoti yo'nalishi 25_03-guruh talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.20034238>

Annotatsiya: Ushbu maqolada “Yusuf va Zulayho” qissa va dostonlarining geneologik tasnifi, qissalarning qiyosiy tahlili, farqli va o'xshash jihatlari haqida ma'lumot berilgan. Dostonlardagi motivlar va ularning xalq og'zaki ijodida tutgan o'rne, shoir va faylasuf olimlarning yondashuv usullari solishtirma tahlillari orqali ko'rsatib o'tilgan.

Kalit so'zlar: Doston, qissa, motiv, kelib chiqish, qiyosiy metod, Payg'ambarlar tarixi, Qur'oni Karim, tush motivi, jang motivi, xalq og'zaki ijodi.

Аннотация: В статье представлена генеалогическая классификация рассказов и эпосов «Юсуф и Зулейха», а также сравнительный анализ рассказов, их отличительные и схожие аспекты. Путем сравнительного анализа показаны мотивы в эпосах и их роль в устном народном творчестве, а также подходы поэтов и философов.

Ключевые слова: Эпос, рассказ, мотив, происхождение, сравнительный метод, история пророков, Коран, мотив сна, мотив битвы, народное творчество.

Annotation: This article provides information on the genealogical classification of the short stories and epics "Yusuf and Zulaykho", a comparative analysis of the stories, and their differences and similarities. The motifs in epics and their role in folk oral art are shown through comparative analysis of the approaches of poets and philosophers.

Keywords: Epic, story, motif, origin, comparative method, History of the Prophets, Quran, dream motif, battle motif, folklore.

“Yoshlarimizning mustaqil fikrlaydigan, yuksak intellektual va ma'naviy salohiyatga ega bo'lib, dunyo miqyosida o'z tengdoshlariga hech qaysi sohada bo'sh kelmaydigan insonlar bo'lib kamol topishi, baxtli bo'lishi uchun davlatimiz va jamiyatimizning bor kuch va imkoniyatlarini safarbar etamiz”¹, - degan edilar yurtboshimiz Sh.M.Mirziyoyev. Ushbu qat'iy belgilangan yo'l bugun o'z natijasini ko'rsatmoqda. Yosh avlodning bir vakili sifatida biz ham bugun o'z salohiyatimizga tayangan holda badiiy so'z san'ati namunalarning tahlili natijalari bilan bo'lishmoqchimiz.

Barchamizga birdek ma'lumki, har bir turkum dostonlar, mashhur bir-biriga syujet jihatidan o'xshash bo'lgan qissalarning kelib chiqishi uzoq tarixga borib taqaladi. Jumladan, “Yusuf va Zulayho” qissasi ham qadim o'tmishiga egadir. Eramizdan ko'p asrlar muqaddam Yusuf haqida turli afsona va rivoyatlar paydo bo'ladi va ular qayta ishlanib “Tavrot”ga kiritiladi. Shu bilan birga bu rivoyat sharq xalqlarida ham keng tarqala boshlaydi va islom dining muqaddas kitobi bo'lgan “Qur'oni Karim”ga ham qayta ishlangan holda kiritiladi². Bu rivoyat shunchaki diniy manbalarda qolib ketmay, balki badiiy adabiyotga ham ko'chadi.

¹ Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. Toshkent - “O'zbekiston” – 2016.

² Mallayev N. O'zbek adabiyoti tarixi. “O'qituvchi” nashriyoti. 1965

Ma'lumotlarga qaraganda, ushbu mavzuda bitilgan yozma adabiyot sifatida dastavval Firdavsiyning “Yusuf va Zulayho”sini keltirishimiz mumkin. Undan keyin Shahobiddin Am'ak ham “Yusuf va Zulayho” dostonini yaratadi, ammo u hanuzgacha bizga noma'lum. Keyinchalik shoir Ali turkiy o'zining “Qissai Yusuf” dostonini yaratadi. Oltin O'rda o'zbek adabiyoti davri namoyondasidan bo'lgan Nosiruddin Rabg'uziy ham bu mavzu chetlab o'tmaydi, u ham o'zining “Qissasi Rabg'uziy” asarida “Yusuf va Zulayho” qissasini kiritib o'tadi. Bundan tashqari ulug' tojik shoiri Abdurahmon Jomiy, Shoir Nozim Xiraviy, uyg'ur yozuvchisi Mulla Yusuf Yorqandiylar ham o'z talqinlaridagi “Yusuf va Zulayho”larni “dunyoga keltirdilar”.

Har bir doston va qissalardagi Yusufning go'zalligi payg'ambarlar tarixiga borib taqaladi. Ya'ni, payg'ambarlar orasida o'z husni bilan ma'lum bo'lgan Yusuf payg'ambarimiz qissalar syujetidagi bosh obraz sifatida talqin qilinadi. Quyida esa turkum dostonlari orasidagi o'xshash hamda farqli jihatlariga to'xtalib o'tamiz. “Yusuf va Zulayho” turkum doirasidagi asarlarni tahlil qilish maqsadida Durbekning “Yusuf va Zulayho” dostoni, Abdurahmon Jomiyning xuddi shu nomdagi asari hamda Nosiruddin Rabg'uziyning “Qissasi Rabg'uziy” asari tarkibidagi “Yusuf va Zulayho” qissasini qiyosiy o'rganib chiqamiz. Dastavval, bu yozma manbalardagi o'xshash jihatlariga to'xtaladigan bo'lsak, har uchala asarning bosh va yondash obrazlari asosan bir xil, uchulasi ham Qur'ondagi “Yusuf” surasiga asoslangan. Asarlardagi voqealar rivoji ham deyarli bir xil: tush motivi, quduqqa tashlash, Misrga sotilish, tush ta'biri voqealari, Zulayho bilan yuz beradigan parallel kulminatsion nuqtalar. Sharq adabiyotida “Yusuf qissasi” va “Yusuf va Zulayho” dostonlari ko'p uchragani bilan birga, qator variantlarga ega bo'lsa-da, voqealar aynan bir-birini takrorlamaydi. Bu syujet turli xalqlarda qayta ishlandi, har bir xalqning yozma va og'zaki adabiyoti bu syujetga ta'sir etdi, natijada o'ziga xos, mazmunan bir-biridan farq qiladigan mustaqil asarlar paydo bo'ldi³. Asarda Zulayho va ayollar o'tirgan uyga Yusuf kirib kelganda, sabzi to'g'rayotgan ayollar Yusufning husnini ko'rib, unga shunchalik mahliyo bo'lib qoladilarki, hatto sabzi o'rniga barmoqlarini to'g'raganlarini sezmaydilar. Shu syujet Abdurahmon Jomiyning fors tilidagi dostonida bor va Ogahiy bu dostonni o'zbek tiliga mahorat bilan tarjima qilgan. O'zbekcha Durbekning “Yusuf va Zulayho”sida shu lavha yo'q. O'zbekcha dostonida akalari Yusufning kiyimini echki qoniga bo'yab, otalari Yoqubga, ukamizni bo'ri yedi, deb yolg'on xabar yetkazganlarida, bo'ri tilga kiradi va “Yusufni men yemadim, faqat manovi osiy o'g'illaring ushlab, og'zimga qon surtdilar va menga tuhmat qildilar”, deb Yoqubga bor voqeani aytadi. Bo'ri mana shu o'lkaga inisini asir qilib olib kelganlarini, inisini qidirib yurganini hikoya qilib beradi. Durbekning “Yusuf va Zulayho” dostoni Yusuf bilan bog'liq voqealarga murojaat qilganda, Yusufning hayotiga oid eng qadimgi voqealami -butparast xalqlami musulmonlashtirish voqealarini dostoniga olib kiradi. XIII-XIV asr o'zbek adabiyotida bu mavzu ancha dolzarb bo'lgan edi. Bu jihatdan mazkur dostonidagi ayni shu voqealar bilan Rabg'uziyning “Qisasi Rabg'uziy” va boshqa “Qisas ul-anbiyo” asarlaridagi “Qissayi Yunus yalavoch alayhissalom” qissasiga mazmunan o'xshashligi ham bor⁴. Durbek mamlakat va xalq taqdirini davlat boshliqlarining xatti-harakatlariga bog'lab tushuntirib beradi. Durbekda asar ko'proq romantik, badiiy yo'nalishda, feodal-klerikal siyosatni tanqid qilib yozilgan. Unda ishqiyy kechinmalar, his-tuyg'ular keng tasvirlanadi. Jomiyda esa bu tasvirlar biroz boshqacharoq: asar bir qaralganda majoziy ishq haqida yozilgandek ko'rinadi, ammo asarning

³ Rahmonov N. O'zbek adabiyoti tarixi. “Sano-standart” nashriyoti Toshkent-2017

⁴ Rahmonov N. O'zbek adabiyoti tarixi. “Sano-standart” nashriyoti Toshkent-2017

asl badiiy g'oyasiga nazar tashlaganda, unda haqiqiy ishq kuylanganini ko'rish mumkin. Jomiy tasavvufiy shoir bo'lganligi sababli o'z asarida ham Yusuf orqali ilohiy go'zallikni, Zulayho orqali esa ishq orqali kamolga yetuvchi ruhni tasvirlab bergan. Rabg'uziy asariga keladigan bo'lsak, u asosan diniy-didaktik, ya'ni pand-nasihat xarakterdagi asardir. Uning asar markazida Yusuf payg'ambar orqali sabrli va axloqli shaxs timsoli tasvirlangan.

Kuzatishlar shuni ko'rsatadiki, Yusuf voqeasiga oid syujetlarga aka-ukalar o'rtasidagi ziddiyatlar hamda begunohlik va gunoh bilan bog'liq voqealar ta'sir etgan. Bularning ildizi yana "Ibtido" kitobiga va Sharq xalqlari og'zaki ijodiga borib taqaladi. Qadimdan mavjud bo'lgan mifologik qarashlar, motivlar orqali asarlarda xalq og'zaki ijodi eng muhim o'rin egallaganligini bilishimiz mumkin. Bunday bir-birini to'ldirib turuvchi variantlar orqali o'quvchi o'ziga ma'naviy ozuqa oladi, didaktik ruhda tarbiya topadi, qadim tarix zarvaraqlarini titkilab, unda o'zi ham yashab, kechmishlarni kechib o'tadi. Zolim hamda odil podshohlar obrazlari orqali bugungi kunda ham adolatli siyosat olib borish muhim ekanligi haqidagi g'oyani o'z ongimizga singdirishimiz mumkin. Ya'qub alayhissalom cho'risini farzandidan ayirib, ko'zi ojiz bo'lishiga sababchi bo'lgani va bu taqdir o'z boshi charxida aylangani – insondan faqat yaxshilik qolishi, yomonlik esa o'zimizga qarata otilgan o'q ekanligi haqida tarbiyaviy xulosa beradi. "Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q" deganlaridek, ajdodlarimiz, faylasuf-olimlarimiz ijod namunalarini o'rganish, adabiyotning kuchini o'tin yorishga emas, balki ma'naviy ong va mafkuramizni ezgu fikr bilan boyitishga sarflashimiz bugungi yoshlar oldidagi eng oliy maqsad bo'lmog'i lozim.

Xulosa qilib aytganda, Yusuf qissasi va unga oid syujetlar nafaqat badiiy zavq bag'ishlaydi, balki inson ruhiyati, axloqiy tanlovlar va hayotiy haqiqatlar haqida chuqur mushohada yuritishga undaydi. Aka-ukalar o'rtasidagi ziddiyatlar, begunohlikning sinovlardan o'tishi, sabr va kechirim kabi fazilatlarining ulug'lanishi bugungi kun o'quvchisi uchun ham o'z dolzarbligini yo'qotmagan. Bu kabi asarlar orqali inson qalbida ezgulik urug'i qad ko'taradi, adolat va halollikka intilish kuchayadi. Shu bois, ajdodlarimizdan meros bo'lib qolgan bunday bebaho ma'naviy boyliklarni chuqur o'rganish, ularni zamonaviy tafakkur bilan uyg'unlashtirish har birimizning muqaddas burchimizdir. Zero, adabiyot – bu nafaqat o'tmish aks-sadosi, balki kelajakni yorituvchi ma'naviy chiroqdir. U insonni komillik sari yetaklaydi, qalbni poklaydi va jamiyatni ezgu g'oyalar asosida rivojlantirishga xizmat qiladi.

Adabiyotlar, References, Литературы:

1. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. Toshkent - "O'zbekiston" – 2016.
2. Mallayev N. O'zbek adabiyoti tarixi. "O'qituvchi" nashriyoti. 1965
3. N.B.Rabg'uziy. Qisasi Rabg'uziy. Yozuvchi nashriyoti. Toshkent 1990.
4. Rahmonov N. O'zbek adabiyoti tarixi. "Sano-standart" nashriyoti Toshkent-2017